



ALLOMA ZAHABIYNING “AT-TIBB AN-NABAVIY” ASARI VA BU BORADA YOZILGAN MASHHUR ASARLAR

Aminjonov Asadullojon Qudratillo o'g'li

O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Hijriy III arsdan kunimizgacha Payg'ambar sallollohu alayhi va sallam tabobatlariga oid ko'plab kitoblar yozilib, jamlandi va yana bu sohada qalam tebratib kelinmoqda. Bu mavzu darvlar osha o'z dolzabligini hali hanuz yo'qotmagan. Demak, mavzu shunday keng va bepayon. Bu borada juda ham ko'p kitoblar tasnif etilgan bo'lib, ana shunday mo'tabar manbalardan biri bu Imom Zahabiy “at-Tibb an-nabaviy” asarlaridir. Alloma Zahabiy asarlarida avvalo Qur'oni karim va Rasululloh sallollohu alayhi va sallamning sunnatlarini asos qilib olganlar. Bundan tashqari sahobalar, tobeinlar, faqihlar, muhaddis va mufassirlar hamda yunon tabobati va o'zlaridan oldingi tib borasida yozilgan kitoblardan ham o'z o'rnida foydalanganlar, desak xato bo'lmaydi.

Kalit so'zlari: Payg'ambar, hadis, tabobat, kitob, tarix, ilm.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak hijriy III arsdan kunimizgacha Payg'ambar sallollohu alayhi va sallam tabobatlariga oid ko'plab kitoblar yozilib, jamlandi va yana bu sohada qalam tebratib kelinmoqda. Bu mavzu darvlar osha o'z dolzabligini hali hanuz yo'qotmagan. Keling avval bu borada yozilgan kitoblar bilan bir sidra tanishib chiqsak, mavzumizni yanada chuqurroq, teranroq anglashga va o'rganayotgan kitobimizni yanada qadrini bilishimizga ko'mak bo'ladi. Ularni yozilish tarixiga eng mashhurlari quyidagilar:

1. Nubuvvat xonadoni vakillarining fikriga ko'ra, tabobatga oid hadislarni birinchi bo'lib jamlagan inson Jobir ibn Hayyondir. U o'zining bu risolasini “Nabaviy tabobat” deb nomlagan. Lekin, biz bu ma'lumotlarni qo'llab-quvvatlaydigan birorta ishonchli manbani topa olmadik¹.

2. Nabiy sollallohu alayhi vasallamning hadislari ichidan tabobatga tegishlisini o'zida jamlagan qadimiy kitoblardan biri Abul Hasan Ali ibn Musoning “Nabaviy

¹ “Hakim Altaf Azmi, A New Manuscript On Proph't's Medicine, Studies in History of Medicine & Science, Vol. IX, Nos 3-4 (1985)”, 95-112 betlar.



tabobat” nomli risolasidir. U bu kitobni xalifa Abbos Ma’mun uchun tayyorlagan. Bu kitob “Oltin risola” nomi bilan ham mashhurdir².

3. Andalus shahrida yozilgan eng qadimiy kitoblardan biri Abdulmalik ibn Habib al-Andalusiyning “Nabaviy tabobat” nomli kitobidir³.

4. Yuqoridagilardan yozilishi bo‘yicha keyingi o‘rinda turadigan kitob Abul Qosim ibn Habib an-Naysaburiyning “Nabaviy tabobat” nomli kitobidir⁴.

5. Alloma Muhammad ibn Ja’far al-Kattoniy o‘zining “Ar-rislatu al-mustatrofa” nomli kitobida ibn Abul Os Abu Bakr Ahmad ibn Amr ibn Nubayning tabobat va kasalliklarga oid qomusiy kitobini keltirib o‘tadi⁵. Ibn Abul Os o‘sha vaqtda Isfaxon shahriga qozi etib tayinlangan edi⁶.

6. Xuddi shuningdek, alloma al-Kattoniy shu kitobida “Ibn Sunniy” nomi bilan mashhur bo‘lgan olim Ahmad ibn Muhammad ad-Daynuriyning “Nabaviy tabobat” nomli kitobini ham keltirib o‘tadi. Ibn Sunniy keyinchalik o‘zining bu kitobini shogirdlarining iltimosiga binoan muxtasar holga keltiradi⁷.

7. Abu Ubayd Muhammad ibn Hasan al-Harroniy o‘zining “Tabibning hadis kitobi” nomli kitobi bilan nabaviy tabobat borasida kitob tasnif qilgan ulamolar qatoridan joy oladi⁸.

8. Imom al-Harroniyning kitobidan keyingi o‘rinda hozirda biz o‘rganayotgan Abu Nuaym al-Asbahoniyning “Nabaviy tabobat qomusi” kitobi turadi.

9. Nabaviy tabobat mavzusida kitob yozgan ulamolardan biri Abul Abbos Ja’far ibn Muhammad ibn Ma’sar al-Mustag‘firydir. Bu olim Abu Nuaym rohimahulloh bilan bir davrda yashagan va o‘sha davrning ko‘zga ko‘ringan muhaddislaridan bo‘lgan⁹.

² Xoji Xalifa, “Kashf al-zunun”, 2/1095. Ismoil Posho al-Bag‘dodiy, “Hadiyyatul orifin”, 1/668.

³ Bu kitobning nusxasini ko‘rish uchun Mag‘rib shahridagi “maktaba xizanatu ar-Robot” kutubxonasiga murojaat qiling. Bo‘lim raqami: 264. Bu kitobning qayta ko‘rib chiqilgan va izohlangan nusxasini ko‘rish uchun “Dar ash-Shamiyya” nashriyotiga murojaat qiling.

⁴ Bu kitobning nusxasi Turkiya davlatining markaziy kutubxonasida mavjud bo‘lib, 826-raqam ostida saqlab qo‘yilgan.

⁵ Kattoniy, “ar-rislatu al-mustatrofa”, 96-bet.

⁶ Kattoniy, “ar-rislatu al-mustatrofa”, 38-bet.

⁷ Kattoniy, “ar-rislatu al-mustatrofa”, 56-bet.

⁸ Ihsanog‘lu, Ekmeliddin, Turkche Tibb-1 Nebevi Yazmalar, Tip Tarihi Arastirmalar-2, Ist, 19880 s.34-39.

Kuchuk, Rasit, Tibb-1 Nebevi Literaturu Uzerine Kuchuk Bir Deneme, Ilim-Sanat Dergisi, c, 1 s. 31985 Yst. S.8.

⁹ Xoji Xalifa, “Kashf al-zunun”, 2/1095. Ismoil Posho al-Bag‘dodiy, “Hadiyyatul orifin”, 1/253. Bu kitobning qo‘lyozma nusxasini ko‘rish uchun Isatanbulning markaziy kutubxonasiga murojaat qiling. Bo‘lim raqami; 2813. Nusxa ko‘chirilish sanasi hij. 1290-yil. Qarang: “Nabaviy tabobat va hadis ilmi”, Muhammad Nozim an-Nasimiy, 1/46.



10. Abu Nuaymning shogirdi alloma Abu Bakr Xatib al-Bag‘dodiy nabaviy tabobat borasida kichik bir risola yozgan¹⁰.

11. Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulloh al-Humaydiyning “Nabaviy tabobat” nomli kitobi al-Mustag‘firydan keyingi o‘rinda turadi¹¹.

12. Alloma faqih Abdulxoliq al-Ishbily nomi bilan mashhur bo‘lgan bu olim oltinchi asrning qalam tebratgan yirik ulamolardan biridir. Uning ham “Nabaviy tabobat” nomli kitobi bor¹².

13. Mana shu o‘rinda keltirib o‘tish zarur bo‘lgan ikki kitob bor. Ular Abul Faraj ibn al-Javziyning “At-tibbu ar-ruhaniy” va “Laqtu al-manafi” kitoblaridir¹³. Bu ikki kitob nabaviy hadislarni tekshirish va ularni saralash e‘tiboridan juda kerakli kitobdir. Chunki, bu kitoblarning muallifi hadislarni saralovchi ulamolardan biridir.

14. Shu o‘rinda yana bir narsani eslatib o‘tish lozimki, mashhur tabib Muvafaqiddin Abdullatif ibn Yusuf al-Bag‘dodiy “Sunan ibn Moja” kitobidan tabobatga tegishli hadislardan qirqtasini olib risola shakliga keltiradi va undagi hadislarni sharhlab, “Al-arba‘una fi at-tibbi an-nabaviy” nomli kitobini tasnif qiladi¹⁴.

15. Ziyouddin Muhammad ibn Abdulvohid al-Maqdisiyning “Nabaviy tabobat” kitobi¹⁵.

16. Ettinchi asrning o‘rtalarida Ahmad ibn Yusuf at-Tiyfoshiy hozirda biz o‘rganayotgan Abu Nuaym al-Asbahoniyning “Nabaviy tabobat” kitobini muxtasar qilishga kirishgan. So‘ngra, o‘sha kitobini “Ash-shifo fi at-tibbi al-musnad an as-sayyid al-Mustofa” deb nomlagan¹⁶.

17. Shamsiddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulfath al-Ba‘liyning ham “Nabaviy tabobat” nomli kitobi bor¹⁷.

18. Abul Hasan Ali ibn Abdulkarim ibn Torxon al-Hamaviy hozirgina biz keltirib o‘tgan al-Bal‘iy bilan bir zamonda yashagan. U ham bu mavzuda kitob yozib,

¹⁰ Islom universiteti kutubxonasining qo‘yozmalar bo‘limida 4759-raqam ostida yozib qo‘yilgan. Bu risola o‘n bir varoqdan iborat.

¹¹ Qastaloni, “al-mavahibu al-laduniyya” (Zarqoniyning sharhi bilan) 7/124.

¹² Qastaloni, “al-mavahibu al-laduniyya” (Zarqoniyning sharhi bilan) 7/124.

¹³ “Kitab al-mavzuot minal ahadisi al-marfuot” Ibn al-Javziy. Muhaqqiq Nuriddin Buyajilar, al-maktabatu at-tadmiriyya, Riyoz, hij. 1418-yil. 1/34, 35.

¹⁴ Ushbu kitobning bosmasi haqida ma‘lumot olish uchun qarang: Muhammad al-Birzoliy, “Kitab al-arba‘in at-tibbiyya al-mustaxroja min sunani ibn Moja va sharhihi”, muhaqqiq Abdulloh Kanun. Al-fazola nashryoti, Mag‘rib, 1979-yil.

¹⁵ Ihsanog‘lu, Ekmeliddin, Turkche Tibb-1 Nebevi Yazmalar, Tip Tarihi Arastirmalar-2, Ist, 19880 s.34-39.

Bu kitobning tahqiq qilingan nusxalari haqida batafsil ma‘lumot olish uchun qarang: Majdiy Fathiy as-Sayyid, “Nabaviy tabobat”, Dar as-sahoba, Bayrut, hij, 1409, mil, 1989-yil.

¹⁶ Ushbu kitobning tahqiq qilingan bosmasini ko‘rish uchun qarang: Abdul Mu‘tiy Amin al-Qol‘ajiy, dar al-maorif, Bayrut, hij. 1408. Mil. 1988.

¹⁷ Ihsanog‘lu, Ekmeliddin, Turkche Tibb-1 Nebevi Yazmalar, Tip Tarihi Arastirmalar-2, Ist, 19880 s.35..



kitobini “Al-ahkom an-nabaviyya fi as-sinaati at-tibbiyya” deb nomlagan¹⁸. Bu kitob Qohirada mil, 1955-yilda chop etilgan. Bu kitobga imom Kattoniy o‘zining “at-tarotibu al-idariyya” kitobida qisqa va sermazmun maqtovlar aytgan¹⁹.

19. Imom Badriddin ibn Jamoa ham “Tazkira fi at-tibbi an-nabaviy” nomli kitobini yozadi. U mana shu sohada yashab o‘tgan ulamolar sirasiga kiradi. Adana viloyatining xalq kutubxonasida kitobning 36 varoqdan iborat qo‘lyozma nusxasi saqlanadi. U qo‘lyozmalar bo‘limida 1156-son bilan ro‘yxatga olingan. Kitobning ustiga Iz ibn Jamoa deb yozib qo‘yilgan. Lekin, bu xato. Aslida, Badriddin ibn Jamoadir²⁰.

20. Mashhur tarixchi va muhaddis Shamsiddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad az-Zahabiyning “Nabaviy tabobat” nomli kitobi bor.²¹

Alloma Shamsiddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Kaymoz ibn Abdulloh Zahabiy 673-yilning rabi‘ul oxir oyida Suriyaning Damashq shahrida dunyoga kelganlar. Bu kishining ota-bobolari turkmanlardan.²² Bobolari Tamim qavmiga mansub kishining ko‘lida musulmon bo‘lganlar. Diyorbakrning mashhur Mayyoforikayn degan shahrida istiqomat qilganlar. Ba’zi tarixiy dalillar shuni ko‘rsatadiki, bobolari kaymoz shu yerda yashab, 661 yilda yuz yoshdan o‘tib vafot etganlar.

Uning bu borada kitobi ulamolar ichida juda mashhurdir va u bu shuhratga nabaviy tabobat mavzusida yozilgan kitoblarga nisbatan eng loyig‘idir.

Demak mavzu shunday keng va bepayon. Bu borada juda ham ko‘p kitoblar tasnif etilgan bo‘lib, ana shunday mo‘tabar manbalardan biri bu Imom Zahabiy “at-Tibb an-nabaviy” asarlaridir. Alloma Zahabiy asarlarida avvalo Qur’oni karim va Rasululloh sallolohu alayhi va sallamning sunnatlarini asos qilib olganlar. Bundan tashqari sahobalar, tobeinlar, faqihlar, muhaddis va mufasssirlar hamda yunon tabobati va o‘zlaridan oldingi tib borasida yozilgan kitoblardan ham o‘z o‘rnida foydalanganlar, desak xato bo‘lmaydi.

Zahabiy ko‘p foydalangan asarlaridan biri muhaddis Ahmad ibn Muhammad ibn Ishoq Abu Bakr shofeiyning “at-Tibb an-nabaviy” asaridir. Bu kishi tarixda Ibn Sunniy nomi bilan tanilganlar.²³

¹⁸ Ihsanog‘lu, Ekmeliddin, Turkche Tibb-1 Nebevi Yazmalar, Tip Tarihi Arastirmalar-2, Ist, 19880 s.32..

¹⁹ Kattoniy, “at-tarotibu al-idariyya”, 3/148.

²⁰ Ramazon Sheshan, “Navodir al-maxtutot al-arabiyya fi maktabati Turkiya”, 1/52.

²¹ Kattoniy, “at-tarotibul al-idariyya” 3/148. Bu kitob bir necha bor nashrdan chiqqan. Shular ichidan yeng yaxshi nusxasi Ahmad Raf‘a al-Badroviy tahqiqi ostida chiqqanidir.

²² D.r. Muhammad Abdurrohman Mura’shiliy. “at-Tibb an-nabaviy va bi axirih faslun fis sama’”. Dorun nafaos.2014. B: 25.

²³ D.r. Muhammad Abdurrohman Mura’shiliy. “at-Tibb an-nabaviy va bi axirih faslun fis sama’”. Dorun nafaos.2014. B: 56.



Hofiz, mu'arrix Abdu Nu'aym Ahmad ibn Abdulloh ibn Ahmadning "at-Tibb an-nabaviy" asarlari. Bu kitobdan ham Zahabiy ko'p foydalangan. Bu kitob Germaniyada (Marbury-Rahn) 1969-yilda Umar Rajab tahqiqi ostida nashrdan chiqqan. Bu kitob bir jilddan iborat. D.r Muhammad Iso Solihiyya o'zining

"Mu'jamul shomil" asarida, Mustafo Ammor "Mo'jam"ida va ko'plab olimlar Zahabiy aynan mana shu kitobdan ko'p foydalanganini aytishgan.²⁴

Bu ikki kitob Islom tarixida tibbun nabaviy borasida yozilgan ilk kitoblardan. Bu ikki kitob manfaati yuksak bo'lishi bilan bir qatorda zaif yoki zaif jiddan hadislar ham uchrab turadi. Tabiiyki Zahabiy bu xatoliklarni o'z kitoblarda bartaraf qilganlar. Asarni boshqa asarlardan ustunligi ham shunda.

Bundan tashqari Zahabiy o'z kitobini zamasida taboabt bilan dong taratgan Gippokrat, Aflotun, Dioskorid, Galen kabi Yunon tib vakillarini asarlaridan foydalanganini ko'rishimiz mumkin.

Masalan Gippokratning "Fusul", "Taqdimatul ma'rifa", Qabru Abqirot" kabi asarlari, Dioskaridning "Hayulo tibb" asari. Bu kimsadan muallif "Lom harfilabaan" faslida, Galenning "Sodda dorilar", "Kasalliklarga qarshi dorilar" asari shular jumlasidan. Shu o'rinda kitobdan bir necha misollar keltirib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Zahabiy yozadi: "Aflotun dedi: "Dunyodagi lazzatlanish turlari to'rtta bo'lib, ular quyidagilar: taomlanish, ichimlik ichish, jimo', eshitishdir".

Galendan mohir tabib borasida quyidagicha iqtibos keltiradi: "Shuning uchun ham Galen "Johil, bilimsiz tabib istmalab yoztgan kasalni oldiga kirsa kasalini ikki baravar avj oldirib chiqadi. Sababi esa johil tabibning noto'gri tashxisi va bilibsizligidir, deydi".²⁵

Yuqoridagi ta'kidlab o'tkanimizdek, Zahabiy bundan ko'plab muuslmon tabiblar va musulmon bo'lmasada o'z ishini mutaxassisi bo'lgan tabiblarni so'zlari bilan kitobini boyitgan. Va albatta birlamchi asos esa, Qur'oni karim, muborak hadislar, sahobbalrni so'zlaridir. Kitobning boshqa asarlardan afzalligi, ustunligi ham shunda, ya'ni muallif o'z asarida o'zidan avvalgi ilm va tajribbalarni qaymoqlarini jamlagan.

²⁴ D.r. Muhammad Abdurrohman Mura'shiliy. "at-Tibb an-nabaviy va bi axirih faslun fis sama". Dorun nafois.2014. B: 56.

²⁵ Hofiz Abu Abdulloh Shamsuddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahabiy. "at-Tibb an-nabaviy". Dor iyha ulum.1990. B: 76, 86, 105, 196.



Alloma Zahabiy har bir aytgan soʻzini avvalo iyat soʻngra hadisi shariflar bilan asoslab boradi. Musannif Rasululloh sallallohu alayhi va sallam har ishda, xususan tabobat borasida ham yoʻlboshchi ekanlarini takidlab oʻtadi.

Alloma Zahabiy hadislarni sharhlar ekan avvalgi oʻtgan sahobalar va tabbobatdagi mohir tabiblaridan iqtibos keltirib sharhini quvvatlab oʻtadi va baʼzi oʻrinlari oʻz ijtihodi bilan ham yozdoshadi.

Demak muallifning uslubini bir necha qirralarini sanab oʻtsak boʻladi:

1. Oyati karima va hadisi shariflarni matni hujjat oʻlaroq keltiriladi;
2. Soʻngra uning sharhi, hukmlari va undan olinadigan foydalalar beriladi;
3. Soʻngra mavzuga doir avvalo soda keyin murakkab dorilarning qoʻllanishi, tarkibi, miqdori keltiriladi;
4. Bundan tashqari muallif kasal kishiga oid masalalar, bemor odoblarini ham oʻz oʻrnida keltirib oʻtadi;
5. Salomatlikka eʼtibor, sogʻliqni saqlash, sogʻliqqa taʼsir qiluvchi yaxshi va yomon odatlar;
6. Tanani vazifalalari;
7. Muallif jismoniy kasalliklar bilan bir qatorda inson ruhiyatiga ham qattiq eʼtibor qaratishi haqida gapirib oʻtadi.

Muallif maʼlumotlarni keltirar ekan har biriga alohida belgi-harf bilan ishora qilib ketgan. Masalalan Imom Buxoriydan rivoyat qilingan hadislariga خ, Muslimga م, Termiziyga ت, Abu Dovudga د, Nasoiyning hadislariga

س, Ibn Moja rahimahumullohga esa ق ramzlari bilan ishora qilib oʻtganlar.

Kitobning tarkibiy qismi haqida muallif quyidagicha yozadi: “Men mana bu kitobimni uch qismga taqsimladim:

- Tabobat qoidalalari: nazariy va amamliy qismga oid masalalar;
- Dori-darmon va ozuqalarga tegish masalalar;

Kasalliklarning muolajalari.”²⁶

Koʻrib turganimizdek bu yoʻnalishga salaflar davrida qoʻl urilgan muhim va har zamonu makonda dolzarb mavzu boʻlib kelgan. Tadqiqot olib borilayotgan Shamsuddin Abu Abdulloh Muhamamd ibn Ahmad Zahabiyning “at-Tibb an-nabaviy” asarlari bir necha jihatdan farqli va mumtoz taraflari ega. Oʻz oʻrnida aytish kerakki bu asarning bu qirralari boshqa asarlarda uchramaydi.

²⁶ Hofiz Abu Abdulloh Shamsuddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahabiy. “at-Tibb an-nabaviy”. Dor iyha ulum.1990. B: 19.